I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi 117 297,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sish sur‘ati 7,7 foizga teng bo‘ldi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 123,4 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 8,1 % ga yetdi.



Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2023- yil	*2024- yil*	
I. YAHM, jami	**88 215,4**	**117 297,8**	**107,7**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	87 137,9	116 079,5	107,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 077,5	1 218,3	108,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**87 137,9**	**116 079,5**	**107,7**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**11 310,8**	**12 397,2**	**103,8**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**63 651,4**	**88 573,7**	**108,5**
Sanoat	59 596,9	83 643,8	108,2
Qurilish	4 054,5	4 929,9	113,9
Xizmatlar	**12 175,7**	**15 108,6**	**106,9**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4 062,9	4 936,2	110,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 487,3	1 945,6	118,4
boshqa xizmat tarmoqlari	6 625,5	8 226,8	102,3

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 108 108,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,8 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘sish sur’atlari diagrammasi



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

	Mlrd. so‘m	
	2023- yil	***2024- yil***
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,8	99,0
mahsulotlarga sof soliqlar	1,2	1,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**13,0**	**10,7**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**73,1**	**76,3**
Sanoat	68,4	72,1
Qurilish	4,7	4,2
Xizmatlar	**13,9**	**13,0**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4,7	4,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,7	1,7
boshqa xizmat tarmoqlari	7,5	7,0

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 10,7 % ni, sanoat tarmog‘i 72,1 % ni, qurilish 4,2 % ni va xizmatlar sohasi 13,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 10,7 %), sanoatda – 108,2 % (72,1 %), qurilishda – 113,9 % (4,2 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (13,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 110,3 % (4,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,4 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (7,0 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 29 099,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 24 485,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 25,1 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 28,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)